


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOQ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE	204
Dilbar Ramazonova	
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov	
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI	223
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	232
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	240
Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza	
XORIJIY MAMLAKATLARDA UY-JOY NARXLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH TAJRIBASI... ..	246
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TOMORQA XO'JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI	252
U.U. Nurullayev	
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WAREHOUSE OPERATIONS.....	257
Abdulazizova Shakhrizoda Azizbek kizi	
IXTISOSLASHUV VA KONSENTRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA SUT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	262
Sherbekova Ariuxan Rashidovna	



TOMORQA XO'JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI

U.U. Nurullayev

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchi

Email: nurullaevlugbek07@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot ishida qishloq aholisining tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan keladigan daromadga innovatsiyalar ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda Samarqand viloyati qishloqlarida tasodifiy tanlanma usulidan foydalangan holda 1843 ta tomorqa xo'jaliklarida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tahlilda tomorqa xo'jalik faoliyatidan olingan daromadning oshishiga innovatsiyalar muhim ahamiyatga egaligi ilmiy asoslangan va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tomorqa xo'jaligi, noqishloq xo'jaligi, innovatsiya, daromad, ma'lumot, tomorqa yer egalari.

Аннотация: В данном научном исследовании изучено влияние инноваций на доходы сельского населения, получаемые от деятельности личных подсобных хозяйств. В исследовании использованы данные социального опроса, проведенного среди 1843 личных подсобных хозяйств в сельских районах Самаркандской области с использованием метода случайной выборки. В ходе анализа научно обоснована значимость инноваций в увеличении доходов, получаемых от деятельности личных подсобных хозяйств, и разработаны соответствующие предложения.

Ключевые слова: личное подсобное хозяйство, несельскохозяйственная деятельность, инновации, доход, информация, владельцы приусадебных земель.

Abstract: This scientific research study examines the impact of innovations on the income of rural residents from tomorka farm activities. The study used data from a social survey conducted in 1843 tomorka farms using a random sampling method in the villages of Samarkand region. The analysis scientifically substantiates the importance of innovations in increasing household income and develops proposals.

Keywords: tomorka farm, non-farm, innovation, income, information, household landowners.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son¹ Farmonida ta'kidlab o'tilganidek[1], O'zbekiston aholisi sonining o'sishi, suv ta'minoti hajmining qisqarishi va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning boshqa yer fondi toifalariga o'tishi natijasida aholi jon boshiga sug'oriladigan yerlar 24 foizga kamayishiga olib kelingan.

Natijada, qishloq hududlarida sug'oriladigan ekin maydonlarining kamayishi natijasida qishloq aholisining qishloq xo'jalik faoliyatida bandligiga ta'siri ko'rsatdi. Qishloq xo'jaligida doimiy (mavsumiy, yollanma) bandlikni talab qiladigan faoliyat turi oila xo'jalik a'zolarining bandligini siqib chiqarib, qishloqlarda ishsizlar sonining oshishiga olib kelindi. Vaholanki, qishloq hududlarida oila xo'jalik a'zolari uchun fermer xo'jaligida yoki dehqon (tomorqa) xo'jaliklarida o'simlikchilik va chorvachilik faoliyatida band bo'lishi, oila o'z iste'molini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan qondirishga, undan daromad olishga harakat qilishadi[2].

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi qishloq hududlarida tomorqa xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadni oshirishda innovatsiyalarning rolini ilmiy asoslab berish va takliflar ishlab chiqarishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi, xususan tomorqa xo'jaligida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyat samaradorligi, barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi [3]. Shu o'rinda, qishloq xo'jaligi sektori iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va bozor talablari kabi

1 <https://lex.uz/docs/-4567334t>



muammolarga duch kelayotganligi sababli, innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash zarur[4]. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmiga va uning sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarflanadigan xarajatlarni 1 foizga oshishi Yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 0,33 foizga oshirishi tadqiqotchilar[5] tomonidan ilmiy asoslangan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar resurslar sarfini tejashga yordam beradi, xarajatlarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, qishloq xo'jaligi faoliyatida xo'jalik subyektlari tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanishiga bevosita ularning ma'lumoti o'rtasida bog'lanish bo'lishi mumkin.

E.Giannakis va boshqalar[6] Kipr qishloq hududi oila xo'jaliklarida o'tkazgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, dehqon xo'jaliklarida ekin maydonlarining 1 gektarga oshishi noqishloq xo'jalik faoliyatida ishtirok etishni 50 foizga kamaytirs, oila xo'jaligida oila a'zolarining 1 kishiga oshishi oila a'zolarining noqishloq xo'jalik faoliyatida band bo'lish ehtimolligini 80 foizga oshirishini ilmiy asoslashgan. Biroq, P.Hazel va S.Hagblidlar[7]ning ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq hududlarida 0,5 gektardan kam bo'lgan dehqon (tomorqa) xo'jaliklarida oila a'zolarining noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlari 30–90 foizgacha, ekin maydoni kam yoki mavjud bo'lmagan dehqon (tomorqa) xo'jaliklari noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromad manbalariga tayanishini ta'kidlashgan.

Ayniqsa, olis qishloq hududlarida istiqomat qiladigan oila xo'jaliklari uchun tomorqa xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar iste'mol tovarlarini qondirish bilan bir qatorda farzandlarining ta'lim olishi uchun investisiya qilishning muhim omili bo'lib qolmoqda. Qishloqlarda mehnatga layoqatli aholining tomorqa xo'jaliklarida doimiy yoki mavsumiy ish bilan band bo'lishi, faoliyati davomida qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish odatiy hol bo'lib, mahalliy iqtisodiyotning o'sishiga ijobiy va sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyati qishloq hududlari tomorqa xo'jaliklari olindi. Samarqand viloyatining 14 ta tumanida 1843 ta tomorqa xo'jaliklarida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlari asosida olib borildi. So'rovnomada aksariyat tomorqa xo'jaligi subyektlari ishtirok etdi. Biroq, oila boshliqlari xorijga yoki boshqa viloyatlarga ishlash uchun ketgan tomorqa xo'jaliklarida oila a'zolari ishtirok etdi.

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan keladigan daromad bilan innovatsiyalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashda hamda innovatsiya bilan bog'liq o'zgaruvchilarni aniqlashda Chi2-testidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tomorqa yer egalari tomonidan resurs tejamkor sug'orish texnologiyalaridan foydalanish natijasida o'simlikchilik tarmog'idan olingan daromad tahlili 1-jadvalda keltirildi (1-jadval).

1-jadval.

Tomorqa yer egalari tomonidan resurs tejamkor sug'orish texnologiyalaridan foydalanish natijasida o'simlikchilik tarmog'idan olingan daromad²

Tomorqa yer egalarining ma'lumoti Yo'q		Ekinlarni sug'orishda resurs tejamkor texnologiyalardan foydalangansizmi?		
		Ha	Jami	
O'rta ta'lim	O'rtacha daromad	5.186	5.365	5.241
	Satandart og'ish	3.047	2.974	3.022
	Respondentlar	281	124	405
O'rta maxsus ta'lim	O'rtacha daromad	7.296	8.129	7.584
	Satandart og'ish	3.621	3.874	3.729
	Respondentlar	627	332	959
Oliy ta'lim	O'rtacha daromad	8.791	9.760	9.183
	Satandart og'ish	4.028	4.185	4.116
	Respondentlar	285	194	479

2 Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma ma'lumotlari.

Jami	O'rtacha daromad	7.156	8.089	7.485
	Satandart og'ish	3.807	4.098	3.936
	Respondentlar	1193	650	1843

Tahlil natijalariga ko'ra, jami tomorqa yer egalarining 650 nafari tomorqa ekin maydonlarini sug'orishda suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanishgan. Ularning faoliyatidan olingan o'rtacha daromadi 8,089 mln. so'mni tashkil etgan. Biroq, ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmagan tomorqa yer egalarining o'rtacha daromadi 7,156 mln. so'mni tashkil etgan. Tomorqa xo'jaliklarida ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda tomorqa yer egalarining ma'lumotiga bog'liqligi va faoliyatdan olingan daromadga ta'sir etishini tahlil natijalari ko'rsatmoqda. Xususan, tomorqada ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiyani qo'llagan, biroq tomorqa yer egasining ma'lumoti o'rta ta'lim bo'lganlarda o'rtacha daromad 5,365 mln. so'mni, o'rta-maxsus ta'limga ega bo'lganlarda 8,129 mln. so'mni va oliy ta'limga ega bo'lganlarda o'rtacha daromad 9,760 mln. so'mni tashkil etgan. Shuningdek, tadqiqotimiz obyektidagi xo'jalik subyektlari ma'lumoti bilan tomorqa xo'jaligida o'simlikchilik tarmog'ida ekinlarni sug'orishda foydalanilgan innovatsion texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida Chi2-testi o'tkazildi (2-jadval).

2-jadval.

Tomorqa yer egalarining ma'lumoti bilan ekinlarni sug'orishda resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanganlik o'rtasida bog'liqlik, Chi2-test³

Tomorqa yer egalarining ma'lumoti Yo'q		Ekinlarni sug'orishda resurs tejamkor texnologiyalardan foydalangansizmi?		
		Ha	Jami	
O'rta ta'lim	Respondentlar	281	124	405
	Qator, %	69.38	30.62	100.00
	Ustun, %	23.55	19.08	21.98
O'rta maxsus ta'lim	Respondentlar	627	332	959
	Qator, %	65.38	34.62	100.00
	Ustun, %	52.56	51.08	52.03
Oliy ta'lim	Respondentlar	285	194	479
	Qator, %	59.50	40.50	100.00
	Ustun, %	23.89	29.85	25.99
Jami	Respondentlar	1193	650	1843
	Qator, %	64.73	35.27	100.00
	Ustun, %	100.00	100.00	100.00
Pearson Chi2 = 9.76 Prob = 0.0076 Kendall's tau-b = 0.0687 ASE = 0.022				

Tomorqa yer egalari ma'lumoti bilan tomorqa ekin maydonlarini sug'orishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'rtasida bog'liqlik 1 foiz ($p < 0.01$)likda statistik muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, tomorqa yer egasining ma'lumoti oliy bo'lishi tomorqa ekin maydonlarini sug'orishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'rtasida ijobiy bog'lanishga ega. Jami tomorqa yer egalarining 479 nafari oliy ma'lumotga ega bo'lib, ularning 194 nafari yoki 40,5 foizi tomorqa ekin maydonlarini sug'orishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishgan. Biroq, 285 nafar yoki 59,5 foiz respondentning ma'lumoti oliy ta'limga ega bo'lmagan bo'lsa-da, ular tomonidan tomorqa ekin maydonlarini sug'orishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishmagan.

Tahlil natijalari asosida bir o'zgaruvchi ikkinchi bir o'zgaruvchiga ta'sir ko'rsatadi deb ayta olmaymiz. Biroq, tomorqa yer egalarining ma'lumoti bilan tomorqa ekin maydonlarini sug'orishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'rtasida, ya'ni bir-biri bilan bog'liqlik 6,8 foizga ega. Tomorqa yer egalarining oliy ma'lumotga ega bo'lishi tomorqa xo'jaligida band bo'lishini cheklaydi. Biroq, innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi natijasida mehnat sarfi va mehnat xarajatlarini kamaytiradi[8], natijada faoliyatdan keladigan daromadni oshirishga

3 Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomma ma'lumotlari.



samarali hissa qo'shadi. Vaholanki, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va/yoki xizmat ko'rsatish sohalariga jalb qilishda, texnologiyalarni o'rnatish va undan foydalanish borasida xo'jalik subyektlarining bilim-ko'nikmasi muhim ahamiyatga ega. Bu borada, qishloq hududlariga, kichik xo'jaliklar uchun yangi texnologiyalarni o'rnatish va undan foydalanishda xo'jalik subyektlari bilim-ko'nikmasini oshirishda qo'shimcha noqishloq xo'jaligi faoliyatini tashkil qilish va/yoki rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotimizda tomorqa yer egalari tomonidan ekinlarni sug'orishda innovatsion resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanishdagi munosabati o'rtasida bog'liqlikni aniqlashda ham Chi2-testidan foydalanildi.

Tomorqa yer egalari tomonidan ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda tajriba yetarli emasligi bilan ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiyalarni o'rnatish xizmatining joriy etilishi o'rtasidagi munosabat salbiy bog'lanishga ega bo'lib, bir o'zgaruvchi ikkinchi bir o'zgaruvchiga salbiy ta'sir etishini tahlil natijalari ko'rsatmoqda (3-jadval).

3-jadval.

Tomorqa yer egalari tomonidan ekinlarni sug'orishda innovatsion resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanishdagi munosabati, Chi2 testi⁴

Ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda tajriba yetarli emas Yo'q		Ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiyalarni o'rnatish xizmatini joriy etilishga munosabatingiz		
		Ha	Jami	
Yo'q	Respondentlar	480	391	871
	Qator, %	55.11	44.89	100.00
	Ustun, %	43.80	52.34	47.26
Ha	Respondentlar	616	356	972
	Qator, %	63.37	36.63	100.00
	Ustun, %	56.20	47.66	52.74
Jami	Respondentlar	1096	747	1843
	Qator, %	59.47	40.53	100.00
	Ustun, %	100.00	100.00	100.00
Pearson Chi2 = 13.02 Prob = 0.0003 Kendall's tau-b = -0.0841 ASE = 0.023				

Ya'ni, jami respondentlarning 972 nafarida tomorqa ekinlarini sug'orishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda tajriba yetishmaydi. Shundan 356 nafari yoki 47,66 foizi ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiyalarni o'rnatish xizmati joriy etilsa, foydalanishga xohishi bor. Umumiy olganda, bunday yangi turdagi xizmat turini tashkil etish yoki qishloq hududlarida joriy etilishi aholi bandligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda tomorqa xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadlarning oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Albatta, innovatsiyalardan foydalanish bevosita tomorqa yer egalari tomonidan ma'lum bir resursdan foydalanishda cheklovlar yuzaga kelganda foydalanish imkoniyatini oshiradi. Biroq, tomorqa yerlarida uzoq davrda ko'p yillik daraxtlar bo'lishi tomorqa yer egalari tomonidan bunday mevali daraxtlardan voz kechishni cheklaydi. Biroq, bir yillik serhosil sifatli sabzavot urug'i va/yoki ko'chatidan foydalanish imkoniyati ko'p yillik mevali daraxtlardan foydalanish imkoniyati tomorqa yer egalari tomonidan ustundir. Har ikki holda ham tomorqa yer egalari tomonidan serhosil sifatli meva va sabzavot ko'chatlaridan foydalanish faoliyatidan keladigan daromadni oshiradi.

Tomorqa yer egalari tomonidan innovatsiyalardan foydalanishda ularning bilim-ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Bu borada, har bir mahallada namunali "tomorqa maktabi" tashkil etilishi tomorqa yer egalari tomonidan bilim-ko'nikmasining oshishiga xizmat qiladi. Biroq, "tomorqa maktabi" bevosita tomorqa yer egalari tomonidan qishloq xo'jaligida zamonaviy innovatsiyalardan foydalanishning agrotexnologiyasini o'rgatish bilan cheklanishi, bunday innovatsiyalarni tomorqa yer egalari tomonidan xo'jaliklarida joriy etish muhim ahamiyatga egaligi ilmiy asoslandi. Bu borada, mahallalarda va/yoki hududlarda innovatsion texnologiyalarni tomorqa xo'jaliklariga joriy etish xizmatining tashkil etilishi tomorqa yer egalari tomonidan o'z mablag'lari va/yoki imtiyozli kredit tizimidan foydalanish imkoniyatini beradi.

4 Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomma ma'lumotlari.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. Hasanov, S., Pardaev, K., Saydullaeva, F., Ismoilov, S., & Muratov, S. (2025, May). Economic Assessment of the Factors Influencing Rural Population's Decision to Engage in Non-agricultural Activities. In International Conference on Integrated Systems: Design and Technology (pp. 156-170). Cham: Springer Nature Switzerland.
3. Muratov, S. A., Hasanov, S. T., Kalandarov, R., Kurbonov, S. P., & Usmanova, A. (2023, December). Economic assessment of the influence of innovations on income from household activities in the framework of digital economy. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 33-41).
4. Muratov, S. (2022). The role of innovations in the activities of tomorka farms in samarkand region. American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology, 6(3), 135-141.
5. Zarkua T., Heijman W., Benešová I. Innovation in Agriculture: Driving Economic Development through EU Knowledge-Based Economy //AGRIS on-line Papers in Economics and Informatics. – 2025. – T. 17. – №. 2. – C. 135-148.
6. Giannakis E., Efstratoglou S., Antoniadou A. Off-farm employment and economic crisis: evidence from Cyprus // Agriculture. – 2018. – T. 8. – №. 3. – C. 41. <https://www.mdpi.com/2077-0472/8/3/41/pdf>
7. Hazell P., Haggblade S. Farm-nonfarm growth linkages and the welfare of the poor //Including the poor. – 1993. – C. 190-204.
8. Raeva S. A. The role of innovative technologies in efficiency increase of agriculture //Зерновое хозяйство России. – 2019. – №. 6. – C. 29-31.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100